



2017 yil yanvar-oktyabr oylarida QURILISH ISHLARI

RAQAMLAR:

Qurilish-montaj
ishlari hajmi -
27261,6 mlrd.so'm

Yirik qurilish-pudrat
tashkilotlari ulushi -
32,1 foiz

Kichik korxonalar va
mikrofimlar ulushi -
37,7 foiz


Qurilishda norasmiy
sektorning ulushi -
30,3 foiz

Joriy yilning yanvar-oktyabr oylari bo'yicha Respublikada 27261,6 mlrd. so'mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,9 foizni tashkil etdi va 2016 yilning yanvar-oktyabriga nisbatan 4,9 foiz punktga kamaydi.


Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 8740,5 mlrd.so'mni yoki 113,3 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,1 foiz punktga oshdi.

Ko'pgina viloyatlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini kamayishi kuzatildi. Shu jumladan, Toshkent viloyatida qurilish - pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 232,1 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 73,4 foizni, mos ravishda, Andijon viloyatida - 70,2 mlrd.so'mni yoki 75,1 foizni, Qashqadaryo viloyatida - 468,3 mlrd.so'm yoki 84,4 foizni, Sirdaryo viloyatida - 27,8 mlrd.so'm yoki 84,8 foizni tashkil etdi.

Qurilish ishlari (mlrd.so'm)



**Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati
2017 yil yanvar-oktyabr uchun**




**2017 yilning yanvar-oktyabrda hududlar kesimida qurilish ishlari
quyidagicha ifodalanadi:**

	<i>Jami</i>		<i>shu jumladan:</i>		
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>Hududiy qurilish pudrat tashkilotlari</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
O'zbekiston Respublikasi	27261,6	104,9	11067,4	113,5	
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1095,1	102,1	518,8	97,1	
viloyatlar:					
Andijon	1496,4	95,4	770,6	108,5	
Buxoro	2069,8	102,8	703,9	109,5	
Jizzax	884,1	100,4	489,9	109,3	
Qashqadaryo	2170,1	100,2	1089,7	111,7	
Navoiy	1052,1	104,8	459,2	116,4	
Namangan	1268,2	105,6	653,6	120,1	
Samarqand	1907,4	85,7	904,2	117,7	
Surxondaryo	1488,8	104,8	778,1	117,4	
Sirdaryo	430,4	106,0	304,0	118,7	
Toshkent	1288,5	98,1	552,0	105,7	
Farg'ona	1829,8	102,3	1006,5	105,8	
Xorazm	1064,1	100,0	529,8	103,5	
Toshkent sh.	4599,1	109,7	2307,0	126,4	



Mulkchilik shakllari

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 26040,0 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 95,5 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 foiz punktga o'sdi.

Joriy davrda Andijon viloyati bo'yicha jami qurilish ishlari hajmida nodavlat sektorining ulushi 96,0 foizni tashkil qildi yoki 2016 yilning mos davriga nisbatan 1,0 foiz punktga ko'paydi, mos ravishda bu ko'rsatkich Toshkent viloyatida 94,7 foizni (3,5 foiz punktga), Navoiy viloyatida 85,8 foizni (2,9 foiz punktga) tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo'mitasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

J.Saipov
(0371) 230-80-56